



OILADA BOLALARGA IQTISODIY TARBIYA BERISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.55.27.039>

Kushakova Gulnora Egamkulovna,

Jizzax davlat pedagogika instituti, mактабгача та'lim metodikasi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: maqolada oilada bolalarga insonlarga xos ma'naviy, axloqiy qadriyatlar: o'zaro hurmat, izzat, ishonch, mulozamat, muhabbat, hamkorlik, hamdardlik tuyg'ulari yaqqol namoyon bo'lishi, oiladagi eng asosiy mezon – ikki tomonning bir-birini tushunib, qo'llab-quvvatlashi, og'ir va quvonchli damlarda bir-biriga hamdard-hamnafas bo'lishini, oilaning muqaddas burchi va vazifasi nafaqat farzandni dunyoga keltirish, balki ularni yuksak ma'-yatli va ma'rifatli qilib tarbiyalash, jamiyatda o'z o'rnini mustaqil topishiga shart-sharoit yaratib berishdan iboratd ekanligi xaqida ma'lumot yoritilgan.

Tayanch so'zlar: Oila, bolalar, oila byudjeti, o'rgatish, o'ziga xos xususiyatlar, xarajat, ma'lumot, jamiyat, ma'naviy kamolot.

ОСОБЕННОСТИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ

Kushakova Гульнора Эгамкуловна,

доцент кафедры методики дошкольного образования, Джиззакский
государственный педагогический институт

Аннотация: в данной статье страны духовно-нравственные ценности детей в семье: взаимоуважение, честь, доверие, вежливость, любовь, сотрудничества, сопереживание. Священный долг и задача семьи не только родить ребенка, но и воспитать его в бодром и просвещенном обществе. Речь идет о создании условий для самостоятельного определении места обществе.

Ключевые слова: семья, дети, семейный бюджет, образование, характеристики, стоимость, информация, общество, духовная зрелость.

CHARACTERISTICS OF ECONOMIC EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY

Kushakova Gulnora Egamkulovna,

Jizzakh state pedagogical institute assoc. department of methods of preschool education

Abstract.: In this article, the spiritual and moral values of children in the family: mutual respect, honor, trust, courtesy, love, cooperation, empathy, the most important criterion in the family - the two sides understand and support, sympathize with each other in difficult and happy moments, the sacred duty and task of the family is not only to give birth to a child, but also to raise him in a vigorous and enlightened society. We are talking about creation conditions for him to find his place on his own.

Keywords: Family, children, family budget, education, characteristics, cost, information, society, spiritual maturity.

Mamlakatimizda oila instituti faoliyatini rivojlantirish, yoshlar dunyoqarashini shakllantirish, xalqimiz madaniyati, iqtisodiy tarbiyaining o'ziga xos namunalari asosida tarbiyyiy ishlar samaradorligini oshirish zarurati yuzaga kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashтирish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'isida» 2020 yil 18 fevraldag'i PF-5938-sون farmonida “.... oilaning farzand tarbiyasi borasidagi mas'uliyatini oshirish, oilaviy qadriylarni mustahkamlash”[1;] kabi ustuvor vazifalar belgilanib, bu borada oilada iqtisodiy tarbiyani tashkil etishga qaratilgan

huquqiy-me'yoriy ta'minotni boyitish, iqtisodiy va umuminsoniy qadriyatlarini yoshlar ongiga sindirishda keksa avlod vakillarining ijtimoiy faolligini oshirish mazmuni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila tarbiyasi to'g'risida ba'zi bir fikrlar bilan o'rtoqlashishdan oldin biz oilaning o'zi qanday mazmun – mohiyat kasb etishini tushunib olishimiz kerak bo'ladi. Shuning uchun oila tushunchasiga to'xtalib o'tishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yidik.

Oila — er-xotinlik ittifoqiga, qarindoshlik aloqalariga, umumiy xo'jalik yuritadigan er va xotin, ota-onasi va bolalar, aka-uka va opa-singillar, bobo-buvilar va boshqa qarindoshlar o'rtasidagi munosabat larga asoslanadigan kichik ijtimoiy guruh, jamiyatning asosi, davlat quadratining manbai. Oilaning hayoti moddiy (biologik, xo'jalik) va ma'naviy (axloqiy, huquqiy, psixologik) jarayonlar bilan xarakterlanadi. ning ma'naviy olami serqirra hodisa bo'lib, nainki Oilaning jamiyatdagi siyosiy-ijtimoiy mavqyeini, balki tarixiy taraqqiyotga xos xususylari, shuningdek, iqtisody imkoniyatlari, demografik va etnografik, etnopedagogik va etnopsixologik an'analarni ham qamrab oladi. Oilaning inson ma'naviy kamolotida tutgan o'rni ham beqiyosdir. [2:]

Oila — tarixiy kategoriya. Uning shakl va funksiyalari mavjud ijtimoiy munosabatlar xarakteri, shuningdek, jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasiga bog'liq. Ayni vaqtida, oila jamiyat hayotiga ham kuchli ta'sir etib, qator funksiyalarini (bola tug'ish, uy-ro'zg'orda mehnat qilish, xo'jalik yuritish, o'za'zolarining jismoniy ehtiyojlarini qondirish, yosh avlodni tarbiyalash, ma'naviy va axloqiy-estetik kamolotiga ta'sir ko'rsatish) bajaradi. Tadqiqotchilar eng qadimgi davrda tartibsiz jinsiy munosabatlar hukm surgan, oila hali shakllanmagan, bu aloqalar o'mini guruhiy nikoh egallagan, ko'p juftli oila paydo bo'lган, deb hisoblaydi. Monogomianing (bir nikohli oila) qaror topishi bilan ayollar erkaklar tomonidan nazoratga olinib, patriarchal davr boshlangan. Ayol asta-sekin o'z eri — xo'jayinining mulkiga, quliga aylangan. Boylik orttirish va uni qonuniy vorislarga berish oilaning asosiy maqsadi bo'lib qolgan.[3:]

Mnogan oilada keng tarqalgan qadimiylardan zardushtiylikda oila va nikoh masalasiga muhim ahamiyat berilgan. Oila va nikoh Yaratuvchining talabiga mos kelgani bois uni buzish taqiqlangan. Agar oilada er yoki xotin axloqsizlik, ya'ni buzuqchilik sodir etsa, unday kishilar jazolangan. Shu orqali oila mustahkamligi uchun kurashilgan. Sharqda oila qadimdan muqaddas vatan hisoblangan. Uning mustahkamligi darz ketishiga yo'l qo'yilmagan. Masalan; "Avesto"da naslning pokligi, tozaligiga ham alohida e'tibor berilgan, qarindosh-urug', aka-ukaning quanda bo'lishi qoralangan. Oila jamiyat, davlatning eng muhim hujayrasи, zarrasi, bo'g'ini. Oila uch jihatni: nikohni, oilaviy mulk va anjomlar hamda ular haqidagi g'amxo'rlikni hamda bolalar tarbiyasini o'z ichiga oladi. Qonunga binoan, nikoh tuzish shartlarida eng muhimi — nikohga kiruvchilarning o'zaro roziligi va ularning nikoh yoshiga yetganligi hisoblanadi. Oila poklik va soqlik, ikki tomonlama muhabbat, sadoqat va vafodorlikka asoslanishi kerak. Oila mustahkam, tinch, farovon, sog'lom bo'lsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga keladi. Uning mustahkamligi oiladagi tinchlik-xotirjamlik, bir-biriga bo'lган samimiymunosabat, oila a'zolarining axloqiy tarbiyasiga bog'liq.

Ma'lumki, xulq-odob inson ma'naviy qiyofasini ifoda etadi. Oila xulq-odob qadriyatlarini shakllantirishdagi asosiy mezon bo'lib, bu jarayonda oila, maktab, mahalla va jamoatchilik tashkilotlari faoliyatlarining uyg'unlikda ish olib borishlari maqsadga muvofiqlikdir. Oila insoniyat uzluksizligi hamda qadriyatlar, urf-odat va an'analarni, qolaversa, butun bir xalq madaniy, ma'naviy merosini avloddan avlodga o'tishini ta'minlovchi omildir. Aynan Oilada insonlarga xos ma'naviy, axloqiy qadriyatlar: o'zaro hurmat, izzat, ishonch, mulozamat, muhabbat, hamkorlik, hamdardlik tuyg'ulari yaqqol namoyon bo'ladi.

Oiladagi eng asosiy mezon – ikki tomonning bir-birini tushunib, qo'llab-quvvatlashi, og'ir va quvonchli damlarda bir-biriga hamdard-hamnafas bo'lishini ta'minlovchi harakat uyg'unligidir. Oilaning muqaddas burchi va vazifasi nafaqat farzandni dunyoga keltirish, balki ularni yuksak ma'-yatli va ma'rifatli qilib tarbiyalash, jamiyatda o'z o'rnini mustaqil topishiga shart-sharoit yaratib berishdan iboratdir. Farzand tarbiyasida oiladagi ma'naviy muhitning to'g'ri yo'lga qo'yilishi, ota-onaning ibrati va mas'uliyati har qachongidan muhimdir. Oila munosabatlari, asosan, ota-onasi va farzandlar o'rtasida kechgani bois ota oilaning sarboni

hisoblanadi. Turli muammolarni hal qilishda otaning fikri hamda maslahati muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, farzand tarbiyasida matonatl, fidoyi, sabr-toqatli, ba'zan qattiqko'l, tejamkor otaning ham, mehridaryo, bag'rikeng yumshoqko'ngil onaning ham o'z o'rni bor. Oiladagi sog'lom muhit, ota-onas tarbiyasi orqali nafaqat jamiyatning bugungi kuni, balki uning istiqboli, avlodlar vorisiyligi ham belgilanadi.

Oila – kishilar hayotining eng muhim qismi, jamiyatning kichik hujayrasi, ijtimoiy-madaniy organizm. Oila kishilarning hayotiy tibbiy-biologik (jinsiy munosabatlar, uy-ro'zg'orini boshqarish), huquqiy (masalan, nikohni fuqorolik holatini qayd etish), ma'naviy (er-xotin, ota-onas va bolalar o'rtasidagi, mehir-muhabbat tuyg'usini va shu kabilar) munosabatlarga asoslangan.

Shuning uchun ham biz tarbiya o'zi nima ma'noni anglatadi degan savolga javob beramiz. [4:]

Tarbiya – keng ma'noda u yoki bu sifatlarning yoki ijtimoiy guruhlarning maqsadlariga muvofiq odamlarning yangi avlodlarga avval avlodlarning ijtimoiy-tarixiy tajribasini uzatish vositasi bilan jamiyatning rivojlanishini ta'minlovchi vazifasi. Tarbiyaning tor ma'nosi – ijtimoiy institutlar doirasida va ta'sirida. Ijtimoiy amaliyotning har bir doirasidagi amaliy faoliyatiga ijtimoiy vazifalarini va rollarni bajarishga tayyorlash maqsadida shaxsni ongli, maqsadga yo'naltirilgan, muntazam shakllantirish jarayoni. Tarbiyalash ijtimoiylashtirishning asosiy halqasi bo'lib, u o'qitish bilan uzviy ravishda bog'liqdir hamda ta'llim tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tarbiya – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarininazarda tutgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro ommaviy va nazariy muloqatidir. O'qituvchi, tarbiyachi, ota – ona, va kattalarning yoshavlod bilan aniq bir maqsad yo'lidagi muloqati ularning ma'naviy darajasidan kelib chiqqan xolda belgilanadi. Shuni inobatga olgan xolda biz ma'naviyat tushunchasi nima ma'noni anglatishini bilib oishga xarakat qilib, bu tushunchaga to'xtalib o'tamiz. Oila byudjetining daromadi barcha oila a'zolarining ish haqi, turli mukofotlari, nafaqa, stipendiya, pensiya, shaxsiy yordamchi xo'jaliklardan olinadigan foyda va bosh qalar yig'indisi hisoblanadi.

Oila byudjetining sarflanishi quyidagi yo'nalishlarda bo'ladi:

1. Uy-joy xarajatlari
2. Oila uchun oziq-ovqatlar, kiyim-kyechaklar, transport xarajatlari
3. Ro'zg'or uchun jihozlar
4. Oila miqyosidagi an'anaviy tadbirlar o'tkazish uchun sarf-xarajatlar
5. Oilaga qo'shimcha daromad kyeltiruvchi xo'jalikka qaratilgan sarf-xarajatlar (yem-xashak, kunjara, siylos, don va bosh qalar)
6. Oila uchun texnikaviy jihozlar.

Sanab o'tilgan sarf-xarajatlar katta va kichik doimiy va takrorlanuvchi bo'lishi mumkin. [3:]

Adabiyotlar ro'yxati

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 18 fevraldag'i PF-5938-son Farmoni

2.Safarov O.. Oila ma'naviyati. T.: Ma'naviyat. 2009y.

3.Xasanboeva O.U.va boshqalar. Oila pedagogikasi.T.: 2007.

4.Kushakova.G, Xalq og'zaki ijodi namunalalarida oila masalalarining talqin etilishi , arxiv научных публикаций jspi: 2020: arxiv №45 (science.i-edu.uz, jspi.uz)

5.Kushakova.G, Abu Nasr Farobi ijodida oilada farzandlarni ahloqiy tarbiyalashning ahamiyati haqida , arxiv научных публикаций jspi: 2020: arxiv №45 (science.i-edu.uz, jspi.uz)